



DIDACTIC POSSIBILITIES OF LEARNING CHANG MUSICAL INSTRUMENT

Usmanov Sirojiddin Makhamadaliyevich

Teacher, UzNMAI named after Yunus Rajabi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13317926>

ARTICLE INFO

Received: 08th August 2024

Accepted: 13th August 2024

Online: 14th August 2024

KEYWORDS

Chang, music, didactic, harp, resonator, construction, performance, style, dulcimer, art, melody, status.

ABSTRACT

This article discusses the creation of the dust instrument, its structure, the scientific views of oriental scholars about the dust instrument, and the didactic possibilities of learning this knowledge. Also, in the article, the social importance of dust, its sounding and performance possibilities, as one of the tools that glorify the spirituality of humanity, is a product of folk art, formed among the masses since time immemorial, made by skilled instrument masters, and is increasingly perfected. It is thought that it is one of the miraculous musical instruments.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИЗУЧЕНИЯ ЧАНГ МУЗЫКАЛЬНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ

Усманов Сирожиддин Махамдалиевич

Преподаватель, УзНИМИ имени Юнуса Раджаби

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13317926>

ARTICLE INFO

Received: 08th August 2024

Accepted: 13th August 2024

Online: 14th August 2024

KEYWORDS

Чанг, музыка, дидактика, арфа, резонатор, конструкция, исполнение, стиль, цимбалы, искусство, мелодия, статус.

ABSTRACT

В данной статье рассматривается создание пылевого инструмента, его устройство, научные взгляды учёных-востоковедов на пылевой инструмент, а также дидактические возможности усвоения этих знаний. Также в статье раскрывается социальная значимость пыли, ее звучания и исполнительских возможностей, как одного из инструментов, прославляющих духовность человечества, как продукта народного творчества, формировавшегося в массах с незапамятных времен, изготовленного искусными инструментальными мастерами. и постоянно совершенствуется. Считается, что это один из чудесных музыкальных инструментов.

CHANG MUSIQIY CHOLG'USINI O'RGANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Usmanov Sirojiddin Maxamadaliyevich

Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI o'qituvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13317926>



ARTICLE INFO

Received: 08th August 2024

Accepted: 13th August 2024

Online: 14th August 2024

KEYWORDS

Chang, musiqa, didaktik, arfa, rezonator, konstruksiya, ijro, uslub, santur, san'at, kuy, maqom.

ABSTRACT

Mazkur maqolada chang cholg'usining yarialishi, uning tuzilishi, sharq allomalarining chang cholg'usi haqidagi ilmiy qarashlari hamda mazkur bilimlarni o'rganishning didaktik imkoniyatlari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, maqolada changning ijtimoiy ahamiyati, uning sadolanishi va ijro imkoniyatlari, insoniyat ma'naviyatini tarannum etguvchi vositalardan bir sifatida xalq ijodi mahsuli bo'lib, azal-azaldan omma orasida shakllanib, mohir cholg'u ustalari tomonidan yasalib, tobora mukammallashib kelayotgan ifodaviy va mo'jizaviy cholg'u sozlaridan biri ekanligi haqida fikr yuritiladi.

San'at va badiiy ijod namunalari inson ichki dunyosiga juda tez ta'sir ko'rsatadigan imkoniyatlarga ega. Musiqiy cholg'ular tadrijiyoti davomida shaklan bir-biriga o'xshash bo'lmagan ikkita cholg'u chang deb yuritilgan:

1) o'tmishda O'rta Sharq xalqlarida mashhur bo'lgan arfasimon chang,

2) hozirgi zamon musiqa amaliyotida qo'llanib kelinayotgan torli-urma chang cholg'usi.

Musiqa cholg'ulari transformatsiyasi, ya'ni bir shakldan ikkinchi shaklga o'tishi inson musiqiy tafakkurining tadrijiyoti bilan bog'liq bo'lgan. Chang cholg'usining arfasimon ko'rinishi paydo bo'lishidan avval, ilk arfalar yaxlit yog'ochdan yasalib, ularning tovushi u qadar baland bo'lmagan. Bunday cholg'ular faqat o'z his-tuyg'ularini tovushlarda ifodalash uchun mo'ljallangan. Qadimgi davrda cholg'uning tovush omillarida katta rezonator qutining ahamiyatini inson anglab yetgan. Rezonator qutining takomillashib borishi pirovardida quti gorizontol holatda yotqizilib, uning ustiga torlar tortilgan va qutisimon cholg'ular yuzaga kelgan.

O'rta asr musiqa amaliyotida bunday ko'rinishdagi cholg'ular yotug'on, navhi, anqo, mug'anniy deb yuritilgan. Sekin-asta cholg'u konstruksiyasidagi uzun rezonator qutining rivojlanib borishi natijasida to'g'ri to'rtburchak, uch burchak, trapetsiya shakldagi qonun, nuzha, shoxrud, santur kabi qutisimon cholg'ular paydo bo'lgan. Ammo yozma manbalarda ularning ijro etish uslublari aniq yoritilmagani, berilgan ayrim ta'riflar miniatyuralardagi tasvirlar bilan mos kelmasligi, mazkur cholg'ularning tadrijiyotini to'liq yoritib berish imkonini bermaydi. Ayniqsa torli-urma cholg'ular masalasi, biroz mavhum. Masalan, Qutbiddin Sheroziy o'zining «Dar ilmi musiqiy» risolasida (XIII a.)¹ salavkiylar davri musiqa cholg'ularini tavsiflab, hozirgi kunda changsimon torli-urma cholg'usi bo'lgan santurni torli cholg'ular guruhiga kiritadi, ammo uning ko'rinishi, ijro uslublari borasida so'z yuritmaydi. Eron shoiri Ahmad ibn Qovus Domg'aniy Manuchehriy «Devoni Manuchehriy» (XI a.) asarida santur cholg'usini bir necha bor tilga olsa-da, uning tashqi ko'rinishi va tovush hosil qilish uslubini bayon etmaydi.

I.Rajabovning «Sharq musiqa atamalarining qisqacha lug'ati»da «chang so'zi xitoycha chjen so'zining buzib aytilishidir», «chang – Xitoydagi o'n uch-o'n besh torli qonun turiga

¹ Dadajonova I. Qutbiddin ash-Sheroziyning musiqiy ta'limoti. San'atshunoslik nomzodi bo'yicha dissertatsiyasi. – Toshkent: 2002. Inv. № 982. – B.164.



mansub cholg'us», «O'rta Osiyoda mashhur changning nomi xitoycha chen so'zidan olingan»², deb ma'lumot berilgan. O'tmishda burchakli arfalardan birining rezonatori egik bo'lgani bois, u chang deb yuritilgan.

O'rta asr chang cholg'usi esa qadimgi arfalarning taraqqiyot mahsulidir. Ya'ni eng qadimgi sanalgan yotiq va yoysimon arfalarning taraqqiy etishi natijasida keng ijro imkoniyatlarga ega bo'lgan burchakli arfa va uning to'rtta turi yuzaga kelgan:

1. Gorizontali (yotiq) rezonatorli arfa.
2. Tik vertikal rezonatorli arfa.
3. Yuqoriga kengayib boruvchi vertikal rezonatorli arfa.
4. Yuqori tomon ingichkalashib boruvchi, boshi egilgan vertikal rezonatorli arfa, ya'ni chang.

Changning ijtimoiy ahamiyati: dastlab ajdodlarimiz tasavvurida: «arfa – yer bilan koinotni bog'lovchi ilohiy cholg'u, unda ijro etish esa koinotga yuksaltirib beradi», degan qarashlar mavjud bo'lgan. Tasviriy san'at namunalarida arfani san'at ma'budalari qo'lida (Sharq xalqlarida -Zuhro, Yevropa davlatlarida - muzalar) tasvirlanishi, Hazrati Dovud «Zaburi Dovud» deb ataluvchi mazhabiy chiqishlarini (nutqini) arfa jo'rligida yetkazishi, ruhoniylar o'zining madhiya va ilohiy qo'shiqlarini urma, damli va torli cholg'ular (arfa) jo'rnavozligida kuylashi, uning xoslar cholg'usi bo'lganini anglatgan.

Chang cholg'usida ijrochilik taraqqiy etishi bilan bu cholg'u saroy marosimlarining ko'rkiga aylangan: musiqiy bazmlar, tantanavor kechalar, ovda («Tog'i-Bo'ston» Eron VI a.), harbiy ijro san'atida («Harbiy musiqachilar» Ustrushona VII a.), yomg'ir yog'dirish va mo'l hosil so'rash marosimlarida («Chang chalayotgan sozanda va raqqosalar». O'zbekqishloq. Qashqadaryo viloyati VII a.). Shuningdek, bemorlarni davolashda ham chang sadolaridan foydalanilgan: «Jubayralik Xo'jayi kalon Xo'ja Sa'da «diq» (cho'pdek ozib ketish) dardiga chalingan ekan. O'sha davr tibbiyotida nom qozongan tabib Sulton Muhammad, unga chang ijrosida kuylar eshitishni (qo'lyozmadagi so'zma-so'z tarjimasida «xastani chang sadolari bilan qo'rqitish») tavsiya etgan. Darvesh Alining guvohlik berishicha, u uch oy davomida bemorga chang chalib, uni davolashga muvaffaq bo'lgan.»³ Yuqorida qayd etilgan ma'lumotlar keyinchalik changning ijtimoiy ahamiyati o'zgarganidan dalolat beradi.

Changning tovush tarovatiga Firdavsiyning «Shohnoma», Xusrav Dehlaviyning «Chang haqida masnaviy» asarida, Alisher Navoiyning «Sab'ai sayyor» dostonida va boshqa ko'plab adabiy asarlarda ta'rif berib o'tilgan. Alisher Navoiyning ijod namunalarida «Chang teshiklaridan mungli ovozlari chiqarkan kishiga uning torlaridan o't sachragandek tuyular edi»⁴ yoki Xoja Qozi Payvandiy Rizoiyning «Qush tili» adabiy asarida: «Yerda chang sadolari yangraganda ko'kda qushni uchishidan, suvni oqishidan to'xtatib qo'yar ekan»,–deya bu cholg'uga ta'rif berilishi changning jozibador tarovati va sehrli sadosini tasavvur etishga yordam beradi. Arab shoiri Maymun ibn Qays (vaf. 630 y.) g'azallarining birida shunday yozadi: «Xusravoniy⁵ kuyini eshitib, hatto keksa ham tebranib, uni kuylay boshlaydi. Tanbur

² Rajabov I. Sharq musiqasi atamalarining qisqacha lug'ati (qo'lyozma). O'zR FA San'atshunoslik instituti (R-12) № 954.

³ Rashidova D. Darvesh Ali Changiy. Traktat o muzike. San'atshunoslik fanlari nomzodi dissertatsiyasi. –Toshkent: 1982. O'zR FA San'atshunoslik instituti. Inv. № 449.-B.36.

⁴ Navoiy A. Sab'ai sayyor. -Toshkent: 1991. – B.393.

⁵ Xusravoniy (forscha – shohona) – shohona marosimlarda ijro qilingan kuy-qo'shiqlar sikli.



sadosi har gal chang torlariga qo'llar tekkandagina yoqimlidir» Tanburning «uzuq» tovushi bilan changning «sidirg'a» sadosi hamohang uyg'unlashib ketishi, asar jozibadorligini yanada oshirgan. Shu bois, tasviriy san'at namunalarida ud va chang yoki tanbur va chang cholg'ulari bir-biriga jo'rnavoz bo'lib kelganini ko'rish mumkin.

Chang deb - dastavval bugungi qutisimon shaklidagi chang cholg'umiz emas, balki o'z davrida ijrochilik amaliyotida qo'llanilgan O'rta Osiyo arfasi shu nom bilan atalgan. Arfa cholg'usi jahonning deyarli barcha xalqlarida bir qancha ko'rinishlarda mavjud bo'lgan, biroq ular orasida egik shakldagi arfa «chang» deb atalib, olimlar fikriga ko'ra, eng mashhur turi bo'lgan. Arfasimon chang Sharq xalqlarining qadimiy cholg'ulari sirasiga kirib, asrlar davomida noma'lum ijodkor xunarmandlar tomonidan yaratib kelingan. Bu arfaning rezonatori, ya'ni tovushni jaranglantiruvchi moslamasi egikroq bo'lganligi sababli chang deb atalgan.

“Chang” - fors tilida “ham”⁶, “egik”, “ilgak” ma'nolarini anglatadi. She'riyat mulkining sultoni Alisher Navoiyning “Sabbayi sayyor” dostonidagi bayti bu fikrimizning isbotidir:

“Demagil chang, soliki xam qad,
Chang qadlar bila bo'lub hamqad.
Bo'libon ul suliqdin muxbir,
Bosh qo'yiliqda bo'lmog'i zokir”⁷

Qadimiy chang cholg'usi qomati egik, arfasimon bo'lganligi haqida ko'pgina rivoyatlar bitilgan, tarixiy manbalarda ma'lumotlar berilgan. Chang (arfa) tasviri O'rta asr miniatyuralarida, arxeologik qazilmalarda (Afrosiyob (mil.avv. II asr.), Dunxuan (Sharqiy Turkiston VI asr.), Ushrushona (Tojikiston VII-IX asr.), Tog'i Bo'ston (Eron VII asr.)) namoyon bo'ladi. Chang (arfa) haqida Forobiy, Qutbiddin ash-Sheroziy, Marog'iy, Kavkabiyy, Darvesh Ali Changiy kabi buyuk allomalar ham o'zlarining musiqaga oid risolalarida ta'rif berishgan. Darvesh Ali Changiyning musiqaga bag'ishlangan “Risolai musiqiy” asarida keltirilgan ma'lumotiga ko'ra, Sosoniylar davrida Eronni arab halifasi xukmdori Umar roziallohu anhu (634-644) bosib olib, musiqani ta'qiqqlab qo'yadi. Sozandalik orqali tirikchilik ko'rgan Piri Changiy Yasribga (Madina) borib, Allohga iltijo qilib bir umr uning maxluqotlariga xizmat qilganligini, ammo endi tirikchilikka pul topolmay, o'zini hech kimga kerak bo'lmay qolganini aytadi.

Darvesh Ali changda ijro etgan kuylar tabiblar tomonidan bemorlarga shifo bag'ishlovchi malham sifatida tavsiya etilgan.⁸ Sharqning buyuk mutaffakirlari Ibn Sino, Al-Kindiy musiqaning hissiy ta'sir kuchiga katta baho berishadi va ruhiy kasalliklarni davolashda yuksakligini ta'kidlashib, bu sohada anchagina muvaffaqiyatlarga erishishgan.

O'zbekiston xalq cholg'ulari ijrochiligi tarixida chang cholg'u ijrochiligi tarixi muhim o'rin tutadi. Chang cholg'u ijrochiligi mazkur cholg'u yaratilgan davrdan boshlanadi. Ko'p xalq cholg'ularida kuzatilganidek, ushbu cholg'u ham qachon ixtiro qilingani to'g'risida aniq ma'lumot yo'q. Lekin, arxeologik va yozma manbalar orqali. Chang cholg'usining juda qadimiyliigi haqida ma'lumotlar yetib kelgan. Chunonchi Boborahim Mashrab (XVII asr) bir g'azalida deydi:

⁶ Bu yerda “ham” atamasi – egilgan, qaddi bukilgan ma'nosida keladi.

⁷ A.Navoiy Sabbai Sayyor. T., 1991, 88-b.

⁸ A.Semenov “Sredneaziatskiy traktat po muzike Darvisha Ali (XVII vek)” 1946.



Mug'lardin o't va Chang cholg'usi keldi,
Bu Mashrabning qalbi g'amga to'ldi.⁹

Darvesh Alining yana ma'lumot berishicha, XVII asrda "7 parda (rad) bo'lgan, birinchi pardada Rost maqomi, ikkinchisida Navo maqomi, uchinchisida Hijoz maqomi, to'rtinchisida Zangula maqomi, beshinchisida Husayniy maqomi, oltinchisida Iroq maqomi va ettinchi pardada Ko'chik maqomi ijro etilgan". Bu o'rinda Darvesh Ali maqomlar ijrosida ularning xususiyatiga mos ravishda Chang cholg'usini ijro qilish kerakligiga ishora qiladi. Shu sababli, "mohir ijrochi barcha 12 maqomda Chang ijro qila oladi", - deydi.

Chang cholg'usi haqida O'rta asr allomalarining musiqiy risolalarida ma'lumotlar berilgan. Jumladan, musiqashunoslik fanining asoschisi Abu Nasr Muhammad al-Farobiyning yozishicha bu cholg'u Samarqandlik Xulays ibn Axvas tomonidan So'g'dda ixtiro etilgan bo'lib, so'ngra Bag'dodda va boshqa mamlakatlarda tarqalgan ekan. Umuman «chang» arab, fors va turkiy adabiyotlarda xilma-xil bo'lib, egri, chang, chog'ona, shudurg'u, yaturg'on atamallari ostida berilgan.¹⁰ «Chang» nomini XIII asrda uchramiz. Qutbiddin Sheroziy (XIII asr) «Durrat-ut toj» (Musiq haqida dur asar) risolasida qonun, nusxa, navxi kabi qadimgi cholg'ular asarida Chang cholg'usini ham tilga olib, «tovushi ochiq torlardan sadolanuvchi cholg'ular» tarkibiga kiritadi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, musiqiy cholg'ular hamisha insoniyat ma'naviyatini tarannum etguvchi vosita, ya'ni xalq ijodi mahsuli bo'lib, azal-azaldan omma orasida shakllanib, mohir cholg'u ustalari tomonidan yasilib, tobora mukammallashib kelayotgan ifodaviy va mo'jizaviy cholg'ulardir. Ularda har bir xalqning milliy g'ururi, an'anasi, qadriyatlarini o'z ifodasini topganki, ulardan taraladigan ovoz ham shunga moslashgan. Bular barchasi yaratilajak cholg'ularning shakliga va milliylik mezoniga asos bo'lib xizmat qiladi. Tarix davomida, doimo musiqiy cholg'ularga bo'lgan e'tibor katta bo'lish bilan birga, tarbiyaviy tomonlari bilan ham alohida ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Zamonaviy jarayonda o'tmish an'alariga yangicha qarash, ilg'or rivojlangan texnikadan munosib foydalanish hamda komil insonni tarbiyalash kabi omillarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, komil inson tarbiyasida musiq haqida eng muhim, ya'ni insonlarni ruhiy hamda ma'naviy tarbiyasiga asos bo'la oladigan omil sifatida qaraladi. O'quv-ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida bunga e'tibor berilishining sababi ham shunda ekanligi shubhasizdir. Qolaversa, ta'limga alohida alohida standartlar tarzida ishlangan dasturlar asosida faoliyat olib borish yo'lga qo'yilmoqda. Natijada, o'qitish mezonida qo'llanilayotgan adabiyotlar va mavjud barcha nashrlar zamonaviy talab darajasidagi yangi qarashlar bilan boyitish, shakllan hamda mazmunan yaxlit bir o'quv adabiyoti ko'rinishiga keltirilib takomillashtirishni taqozo etmoqda. Ma'lumki, musiqiy cholg'ular va ular bilan bog'liq namunalari xalq musiq ijodiyotining ahamiyatga ega bo'lgan tarkibiy qismini tashkil etadi. Hozirgi davrgacha yuzaga kelib, amaliyotda o'z o'rnini egallagan va ijrochilik amaliyotini yuqori saviyaga erishib borayotganligi, umumbashariyat madaniyatida alohida nufuzga ega ekanligi ham bundan dalolat beradi. O'zbek xalq cholg'ularining har biri texnik jihatdan va tarannum darajasidan ilg'od cholg'ular darajasiga kiritish mumkin. Aksariyat namunalari boy ijroviy imkoniyatlari hamda mukammal darajada shakllanganligi bilan ajralib turadi.

⁹ Boborahim Mashrab. Mehribonim qaydasan. –T., 1990. 161-bet.

¹⁰ Al Farabi. Nauchnoye naslediyeye. Sbornik, M., 1975



References:

1. Al Farabi. Nauchnoye naslediye. Sbornik, M., 1975
2. A.Semenov "Sredneaziatskiy traktat po muzike Darvisha Ali (XVII vek)" 1946.
3. Boborahim Mashrab. Mehribonim qaydasan. –T., 1990. 161-bet.
4. Rashidova D. Darvesh Ali Changiy. Traktat o muzike. San'atshunoslik fanlari nomzodi dissertatsiyasi. –Toshkent: 1982. O'zR FA San'atshunoslik instituti. Inv. № 449.-B.36.
5. Rajabov I. Sharq musiqa atamalarining qisqacha lug'ati (qo'lyozma). O'zR FA San'atshunoslik instituti (R-12) № 954.